



## BUXGALTERIYA BALANSI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR

**Esonova Shahlo Abdimurot qizi**

Denov Tadbirkorlik va pedagogika institute Tadbirkorlik va boshqaruv  
fakulteti

Buxgalteriya hisobi va audit yo`nalishi 2-bosqich talabasi

e-mail: boboseresanov@gmail.com

**Qo`zimurodova Sabohat Mamatmuso qizi**

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv  
fakulteti

“buxgalteriya hisobi va audit”yo`nalishi 8BH- 20-guruh talabasi

e-mail:sabohatqozimurodova59@gmail.com

tel:+998992420214

**Qulsaxatova Sevara Baxram qizi**

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv  
fakulteti

“Iqtisodiyot”yo`nalishi 2I-20-guruh talabasi

e-mail:ecnmst1@gmail.com

tel:+998938478883

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7608705>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-yanvar 2023 yil

Ma`qullandi: 01-fevral 2023 yil

Nashr qilindi: 06-fevral 2023 yil

### KEY WORDS

Balans tushunchasi,  
buxgalteriya balansi, aktiv,  
passiv, hisobot, hisobot  
davrlari.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada buxgalteriya balansi haqida umumiy  
tushunchalar korxona va tashkilotlar buxgalteriya  
balansi haqida so`z boradi va ular haqida ba`zi bir  
ma`lumotlarga ega bo`lamiz.*

Korxona va tashkilotlarda xo`jalik faoliyatini boshqarish bevosita mablag`larning holatiga, ulardan foydalanish darajasiga, mablag`larning aylanish tezligiga bog`liq. Balansni iqtisodiy jihatdan olganda xo`jalik mablag`larini joylanishi va tashkil topish manbalari bo`yicha bir biriga tengligini ta`minlaydi deb aytsak bo`ladi. Buxgalteriya hisobining asosiy tushunchalaridan biri bu “balans” hisoblanib u korxona va tashkilotlar uchun tayanch vazifasini bajaradi. Keling shu o`rinda balans haqida ozgina ma`lumotga ega bo`lsak. “Balans” so`zi lotincha so`z bo`lib, uning aynan tarjimasida “bis” ikki karra va “lans” tarozi pallasini, ya`ni tarozining ikki pallasining tengligi degan ma`noni, muvozanat tenglik ramzini bildiradi. Tarozi muvozanat ramzi sifatida buxgalteriyaning xalqaro gerbidagi ham aks ettirilgan. Buxgalteriya hisobida “balans” tushunchasi ikki ahamiyat kasb etadi:

**1. Jamlangan summalar tengligi**, ya`ni schyotlarning debeti bo`yicha summalar jami va krediti bo`yicha summalar jami tengligi, har bir sintetik schyot ma`lumotlarining (boshlang`ich qoldig`i, debet va kredit oborotlari, oxirgi qoldig`i) mazkur sintetik schyotga tegishli analitik schyotlar ma`lumotlariga tengligi, balans aktividagi moddalar summalar jami va passividagi moddalar summalar jami tengligini ifodalaydi;

**2.Moliyaviy hisobotning asosiy shakli** bo'lib ,xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lum sanadagi mulkiy va moliyaviy ahvolini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimini ifodalaydi.

### **BUXGALTERIYA BALANSINING MAJBURIY UNSURLARI**

- moddiy aktivlar;
- nomoddiy aktivlar;
- moliyaviy aktivlar;
- zaxiralar;
- debitorlikqarzi;
- pul mablag'lari va pul ekvivalentlari;
- kreditorlikqarzi;
- ajratmalar;

Iqtisodiyotda buxgalteriya balansi, ijtimoiy mahsulot balansi, savdo balansi, mehnat resurslari balansi, daromadlar va xarajatlar balansi, to'lov balansi va boshqa balanslar mavjud.Bizga hozir buxgalteriya balansi haqida ma'lumotlar kerak bo'lgani uchun , bunga ham ozgina to'xtalib o'tamiz. Buxgalteriya balansi - xo'jalik yurituvchi korxonalarda har oyning birinchi sanasida xo'jalik mablag'larining turlari va tashkil topish manbalari bo'yicha iqtisodiy guruhlashtirish hisoblanadi.Buxgalteriya balansi jadval shaklida bo'lib, ikki qismdan iborat bo'ladi. Uning chap qismi aktiv deb, o'ng qismi passiv deb ataladi. Balansning aktiv qismida xo'jalik mablag'lari va ularning joylanishi aks ettirilsa, uning passiv qismida esa xo'jalik mablag'larning tashkil topish manbalari va tayinlanishi aks ettiriladi. Ko'rinib turibdiki, buxgalteriya balansi ikki tomonli ko'rinishga ega bo'lib, uning chap tomoni aktiv, o'ng tamoni esa passiv deb nomlanadi. Aktiv tomonida xo'jalik mablag'larining turlari, joylanishi ko'rsatilsa, passiv tomonida esa shu mablag'larning paydo bo'lish manbalari va qanday maqsadga ishlatilishi aks ettiriladi. Buxgalteriya balansining ikkala tomoni ham bir qancha moddalarga bo'linadi.Korxonaning har qanday mulki qaysidir manba hisobidan kelib tushadi. Shuning uchun buxgalteriya balansining aktiv qismi uning passiv qismining umumiy summasiga (valyuta balansiga) teng kelishi kerak. Hisobot davrida korxonaning moliyaviy holati haqida umumlashgan axborot manbai bo'lib buxgalteriya balansi hisoblanadi.Uning dinamikasi o'rganiladi. Buxgalteriya balansi yordamida korxonaning to'lov qobiliyati o'rganiladi, ya'ni korxona o'zining joriy aktivlar bilan joriy qarzlarni to'lash qobiliyati.Uning yordamida mulkning tarkibi va tuzilishi, korxonaning daromadliligi va uning likvidliligi, oborot mablag'larning aylanishi, debitorlik va kreditorlik qarzlarning holati aniqlanadi.

### **BALANS MA'LUMOTLARI VA UNING BOSHQA MOLIVAVIY HISOBOTLAR MA'LUMOTLARIGA MOSLIGI**

**Aktivlar** – xo'jalik subyektining qiymat bahosiga ega bo'lgan moddiy, shu jumladan, pul mablag'lari va debitorlik qarzlari va nomoddiy mulkidir.

**Kapital** – aktivlarning qiymatini va majburiyatlarni baholashga bog'liqdir.

**Majburiyatlar** – o'zida iqtisodiy foydani ifodalovchi resurslar oqimi ehtimoli mavjud bo'lganida buxgalteriya balansida e'tirof etiladi, shuningdek, ular majburiyatlarni qabul qilish natijasidir.

Korxonalarning xo'jalik mablag'lari hamma vaqt kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida harakatda bo'ladi va davrlar bo'yicha ham miqdor, ham qiymat jihatidan o'zgarib turadi. Xo'jalik faoliyati ustidan rahbarlik qilish va boshqarish uchun korxona qanday mablag'larga ega, ularning tarkibi va qayerda joylashganligi hamda bu mablag'lar qanday

manbalardan tashkil topganligi to'g'risida aniq ma'lumotlar bo'lishi zarur. Xo'jalik mablag'larining tarkibi, joylanishi, harakati va ularning kelib chiqish manbalaridagi o'zgarishlarni bir-biriga solishtirib, ma'lum bir sanaga pul o'lchovida umumlashtirib aks ettirish buxgalteriya hisobi usulining muhim elementlaridan biri – balans yordamida amalga oshiriladi.

Balans yordamida xo'jalik mablag'lari, ularning holati, mavjudligi, joylanishi va tashkil topish manbalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'linadi. Balans usulidan faqat buxgalteriya hisobidagina foydalaniladi deb tushunish noto'g'ridir. Bu usuldan rejalashtirish, ta'minot, statistika hisobida va operativ hisobda ham keng foydalaniladi. Shuning uchun ham balans usuli yordami bilan ma'lumotlarni umumlashtirish ko'p fanlarda qo'llaniladigan umumiy usullar qatoriga kiradi.

Buxgalteriya hisobida xo'jalik mablag'lari ikki tomonlama, ya'ni ularning tarkibi va joylanishiga hamda kelib chiqish manbalariga ko'ra aks ettirilishi hisobga olinib, balanslar tuzilayotganda ularda aks ettirilayotgan ma'lumotlar tengligiga e'tibor qilinadi. Korxona xo'jalik mablag'larining turlari va joylanishi hamda bu mablag'larning tashkil topish manbalari buxgalteriya balansining ikki tomonini tashkil qiladi.

Buxgalteriya balansida korxonaning xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil topish manbalari umumlashtirilib, odatda, kunning ohiriga (banklarda) yoki hisobot davridan keyingi oyning birinchi kuniga pul o'lchovida tuziladi. Korxonalarda hisobot davrida sodir bo'lgan xo'jalik muomalalari maxsus hujjatlarda qayd qilinadi. Bu hujjatlarga asoslanib buxgalteriya provodkalari tuziladi va ular buxgalteriya hisobining sintetik schyotlariga tarqatiladi. Hisobot davri ohirida sintetik schyotlar bo'yicha aylanma vedomost tuziladi. Bunda hisobot davri boshidagi har qaysi sintetik schyotning boshlang'ich qoldig'i, hisobot davrida sodir bo'lgan aylanma summasi va hisobot davri ohiriga qoldiq summasi ko'rsatiladi.

Shuni qayd qilib o'tish kerakki, korxona xo'jalik mablag'lari va ular manbalarining kundalik xo'jalik faoliyatiga buxgalteriya balansi yordamida to'la baho berib bo'lmaydi. Darhaqiqat, kundalik xo'jalik faoliyatidagi o'zgarishlarni aks ettirib turish uchun buxgalteriya hisobining joriy ma'lumotlarini hisobga oluvchi schyotlar tizimi usulidan foydalaniladi. Lekin xo'jalik mablag'lari va ular manbalarining harakatini, ularda sodir bo'lgan o'zgarishlarni ma'lum bir sanaga to'plab aks ettirish talab qilinadi, chunki bunday yig'ib tasvirlash korxona xo'jalik mablag'larining, bir tomondan, tarkibi va holatidagi davriy o'zgarishni ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, ularning tashkil topish manbalaridagi o'zgarishlarni aks ettiradi, shu bilan birga, u xo'jalik faoliyatining holatini iqtisodiy tahlil qilishda zarur xulosalar olish uchun muhim material hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi bo'yicha xalqaro buxgalteriya standartlarida buxgalteriya balansi balans hisoboti deb yuritiladi. Balans hisoboti korxonaning ma'lum sanaga bo'lgan moliyaviy holatini ko'rsatadi. Balans hisoboti korxonaning aktivlari, korxonaning boshqa huquqiy shaxslar va fuqarolarga bo'lgan majburiyatlari hamda aksiyali jamiyat shaklida faoliyat qiladigan korxonaning aksiyali kapitalining tafsiloti bilan berilgan ro'yhatini ko'rsatadi. Buxgalteriya balansini balans hisoboti deb atalishiga sabab, bu balansda korxona aktivlarining qiymatini, korxonaning boshqa huquqiy shaxslar va fuqarolarga bo'lgan majburiyatlarining umumiy qiymati bilan korxonaning kapitalini umumiy qiymatiga teng kelishidir.

**Xulosa.** Buxgalteriya balansi axborotlarga boy manba bo'lib, ularga asoslanib xo'jalik yurituvchi subyekt moliya-xo'jalik faoliyati hamda uning natijalari baholanadi. Aynan mana

shunday muhim ahamiyatga ega bo'lganligi bois buxgalteriya balansi buxgalteriya hisoboti shakllari ichida birinchi o'rinda turadi. Undagi axborotlarning mazmunini bilish uchun nafaqat buxgalteriya balansi tuzulishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish, balki ayrim ko'rsatkichlar o'rtasidagi mantiqiy va o'ziga xos bog'liqliklarni ham bilish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1."Buxgalteriyta hisobi nazariyasi" o'quv qo'llanma;
- 2."Banklarda buxgalteriya hisobi" o'quv qo'llanma  
(F.T.Abduvaxidov, Z.A.Umarov, K.N.Djurayev)
- 3.Buxgalteriya hisobining axborot tizimlari:Qtjuv qo'llanma/A.A.Karimov va boshqalar.-  
T."Iqtisodiyot-moliya", 2018-192 b
- 4.Google qidiruv tizimi

